

O'SMIR YOSHDAGI BOLLARDA DIQQATNING BUZILISHI

Ermamatova Gulbahor Ne'matulla qizi

O'ZMU Jizzax filiali Psixologiya fakulteti "Yoshlar psixologiyasi"

220-20-guruh 2-kurs talabasi

Tayanch so'zlar : *Bilish jarayonlari, diqqat, o'smirlik, yetukli, o'tish davri, keksalik, o'smirlik davri kirizisi, "men" konsepsiyasi.*

Pisixologiya fanining muhim sohalaridari biri bu yoshlar psixologiyasi sohasidir .Ushbu fan sohasi bevosita inson psixologiyasining namoyon bo'lish va rivojlanishining turli yoshlarda qanday kechish xususiyatlari, qonuniyatlari ,qonuniyatlari mehanizimlarini o'rganadi .

Bilamizki yosh psixologiyasi sohasi o'z navbatida davrlarga bo'lib o'rganiladi. Ular: chaqaloqlik davri ,ilk bolalik davri ,maktabgacha ta'lim ,maktab yoshi, o'smirlik ,yetuklik va keksalik davrlaridan iborat. Ushbu davlar bir- biridan faqatgina yosh jihatdan farqlanmay balki har bir davrga hos o'zgarish va hususiyatlari 'shu davrda insonda sodir bo'ladigan ruhiy holatlar bilan farqlanadi .

Bu davrlardan o'smirlik davrini oladigan bo'lsak – birgina shu davrni o'zida o'smirlarda juda katta ruhiy o'zgarish sodir bo'ladi .Bu davr asosan 12-15 yosh atrofidagi o'quvchilarda kuzatiladi. Hozirgi o'smirlar o'tmishdoshlariga nisbatan jismoniy aqliy va siyosiy jihatdan bir muncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy etilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o'sish oldinroq namoyon bo'lmokda. Aksariyat o'quvchilarda o'smirlik Yoshiga o'tish, asosan, 5-sinflardan boshlanadi. «Endi o'smir bola emas, biroq katta ham emas» - ayni shu ta'rif o'smirlik davrining muhim xarakterini bildiradi. O'smirlik – bolalikdan kattalikka o'tish davri bo'lib, fiziologik va psixologik jihatdan o'ziga xos xususiyatlari bilan xarakterlanadi. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi, hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilish ortadi, xarakteri shakllanadi, ma'naviy dunyosi boyiydi, ziddiyatlar avj oladi. O'smirlik balog'atga etish davri bo'lib, yangi hislar, sezgilar va jinsiy hayotga taallukli chigal masalalarning paydo bo'lishi bilan ham xarakterlanad. Bu davr kimlardadir ertaroq , kimlardadir kechroq sodir bo'ladi .Bu davr fan tilida "'o'tish davri" deb nomlanadi .Bu davrda o'smir yoshlardagi o'zgarish yaqqol ko'zga tashlanmasligi mumkun .Ammo undagi hatti harakatning o'zgarishi , o'zini tutish holatlari unda kechayotgan jaroyonni ko'rsatib qo'yadi . O'mir davridagi bo'llar o'zlarini kattalardek tuta boshlidi .Bu davdagi o'smirlar mustaqil shaxsdek o'zini his qila boshlidi .Bu davda bollarda o'ziga ishonch aniqroq aytganda "men" konsepsiyasi rivojlanish jihatdan ancha yuqori darajaga yetgan bo'ladi .Bola atrofdagi fiklarga ta'sirchan bo'lib qoladi .Bu davrda bola diqqat jaroyonining buzulishi ko'p uchraydi. O'smirlik davrida ichki erkinlikning o'sishida, o'z-o'zini anglash layoqatlarida, mustaqil xatti-harakatlarida katta sifat o'zgarishlari yuz beradi. Bunday o'zgarishlarning yuzaga kelishida diqqatning ham ahamiyati katta. Iroda oliy psixik

funksiya sifatida o'smirning erkin harakat qilish quroli, Shuningdek, shaxsi rivojining magistral chizig'i bo'lib hisoblanadi. Bu davrga kelib uning harakatlari o'zi bilan o'rtoq bo'lgan bir guruh tengdoshlariga bog'liq bo'lmay qoladi. O'rtoqlari o'smirlarga o'zi to'g'risidagi noto'g'ri tasavvurlardan qaytib, jiddiy o'ylab ko'rishga uni majbur qilmoqchi bo'lganlarida ham u bemalol rad javobini berishi va o'z fikrida qat'iy turib himoya qilishi mumkin. Bu davrda o'zga kishilarning ichki dunyosiga ortiqcha qiziqish bilan qarash va o'z xatti-harakatlarini o'zi tahlil qilish, o'z-o'zini tarbiyalashning elementlarini yuzaga kelishi mana shu ikkinchi bosqichdagi o'smirlar hayotiga xos xususiyatlardir. O'smirlik davriga ko'pincha so'zga kirmaslik, o'jarlik, tajanglik, o'z kamchiliklarini tan olmaslik, urushqoqlik kabi salbiy xususiyatlar xosdir. O'smirlar hayotda, ekranda va kitoblarda kattalarning mustaqilligini va erkinligini, ularning katta va qiziqarli ishlarini, dadil harakatlarini, qahramonliklarini, atrofdagilar orasidagi obro'larini ko'radilar hamda havas qiladilar. O'smirda katta Yoshli odam bo'lishga yoki hech bo'lmaganda katta Yoshli odam bo'lib ko'rinishga qiziqish, intilish paydo bo'ladi va bu xohishni amalga oshirish unga osondek bo'lib ko'rinadi. O'smirlarning ehtiyojlari va imkoniyatlarining o'zaro mos kelmasligi o'smirlar bilan ota-onalari, o'qituvchilari va boshqa murabbiylari o'rtasida qarama-qarshilikni keltirib chiqaradi.

Diqqat – bilish jarayoni hisoblanib insonni atrofdagi voqeya hodisani to'g'ri idrok qilishga yordam berdi. Diqqat barcha insonning asosiy quroli desak buladi. Chunki rus olimi Ushenskiy aytganidek: “diqqat ruhiy hayotimizning shunday eshigiki ,ongimizga kiradigan narsalarning barchasi shu eshik orqali kiradi. Ya'ni diqqat inson fikrini bitta nuqta ustida to'plab beradi . Va bizning bu narsa haqida ma'lumot toplashimiz ya'nada yaxshilanadi. O'smir yoshda diqqat xususiyatlaridan biri bulgan bo'linuvchanlik ko'p uchraydi .Ya'ni o'smir yosh qiziquvchan va qiziqqon bo'ladi. Uning uchun atrofda bo'layotgan barcha yaxshi yomon voqeya hodisa ahamiyatli bo'lib qoladi .Bunga misol qilib 8-sinf va undan yuqori sinf o'quvchilari o'rtasida darsga qiziqishdan ko'ra o'tkinchi his tuyg'uga berilish ko'proq uchiridi .Do'stlari bilan tez arzimagan narsa ustida bahislasish holatlari uchrab turadi .Odatda har qanday shaxs diqqati 10-15 daqiqa bitta narsada to'plab tura oladi. So'ng diqqat boshqa narsani idrok qilishga o'tadi . Huddi shunday o'smirlarda ham shu holat tez-tez kuzatiladi .Dars jaroyonida o'tuvchi tomonidan darsga jalb etmaguncha o'quvchi aslo darsga e'tibor qaratmaydi . Shu sababdan bu davrdagi yoshlarni dars jaroyoniga faol jalb etish uchun darsni boshlashdan oldin albatta bitta diqqatni jamlovchi trening mashg'uloti utilishi talab qilinadi .Shundagina o'quvchi darsga bor diqqatini qarata oladi .O'mir davrida bolada diqqat qonuni bo'lgan yangilik qonuni jaroyani ko'p kuzatiladi . O'smir bola yuqorida aytib o'tilganday yarq etgan narsaga qiziqadi. Yangiliklar uni tez o'ziga jalb qiladi. Birhillik zeriktirib qo'yadi. O'smir o'zining juda ko'p istaklari, «xohlayman»larini amalga oshirishga intiladi: katta Yoshli odamlar ega bo'lgan ham-ma narsalardan foydalanishga, erkin, mustaqil va ozod bo'lishga intiladi. Tevarak-atrofdagi odamlarga o'zining ahamiyatga ega ekanini ko'rsatish uchun u kuchli, ko'rqmas va epchil bo'lishga inti-ladi. Tarbiyachilar ham o'z tarbiyalanuvchilari xuddi

shunday bo'lishlarini istaydilar, ammo ular ana shu fazilatlarining faqat «kerakligi» uchun shunday bo'lishini istaydilar. Ana shunday «xohlayman» va «kerak» o'rtasidagi qarama-qarshiliklar ba'zan oilada, maktabda, keskin ziddiyatli vaziyatlarni yuzaga kel-tiradi. Tarbiyalangan odamda «xohlayman» fakat «kerak»ni bajarish orqaligina amalga oshiriladi. Agar o'smir bola tushunishga o'rgatilmagan bo'lsa va «kerak» bo'lgan narsani bajarishga odatlanmagan bo'lsa, u o'zboshimchaligini namoyon qilish orqali tarbiyachilarning talablariga qarshilik qiladi hamda o'zining shaxsiy asoslanilmagan xohishlari asosida ish tutadi. O'smirning yangi huquqlarga da'vosi, avvalo, kattalar bilan o'zaro munosabatlarning butun muhitiga oid bo'ladi. O'smir avval bajonidil bajaradigan talablarga endi qarshilik ko'rsata boshlaydi: uning mustaqilligini cheklashganda, vasiylik qilishganda, yo'naltirishganda, nazorat qilishganda, quloq solishni talab qilishganda, jazolashganda, uning qiziqishlari, munosabatlari va fikrlari bilan hisoblashishmaganda u juda xafa bo'ladi va norozilik bildiradi. O'smirda o'z qadrini bilish hissi paydo bo'ladi va u o'zini kamsitish, mustaqillik huquqidan mahrum qilish mumkin bo'lmagan inson, deb biladi. Bolalikdagi kattalar bilan bo'lgan munosabat haqidagi fikrlari o'zgaradi va uning o'z kattaligi darajasi haqidagi tasavvurlari bilan mos kelmay qoladi. U kattalar huquqini cheklaydi, o'zinikini esa kengaytiradi. Kattalarning o'z shaxsi va insoniylik qadrini hurmat qilishlarini xohlaydi, ishonch va mustaqillik namoyon etishga da'vo qiladi, ya'ni kattalar bilan ma'lum teng huquqlilikka va ularning shu narsani tan olishlariga erishishga harakat qiladi. Dars mashg'ulotlariga ham qiziqmasligiga shu holat sabab buladi. O'smir har kuni ha rxil holatda noananaviy dars o'tshni hohlaydi. Bu usul nafaqat o'smir uchun balki barcha yosh davrlaridagi shaxslar uchun odatiy jarayondir . Ko'pgina o'smirlarda o'zidan qoniqmaslik holati kuzatiladi. Shuningdek, o'zi haqidagi mavjud fikrlarining bugun unda sodir bo'layotgan o'zgarishlarga to'g'ri kelmayotganligi o'smirni asabiylashishiga olib keladi, unda juda ko'p noqulay va tashvishga tushuvchi xolatlar bo'ladi. Bu esa o'smirda o'zi haqida salbiy fikr va qo'rquvni yuzaga keltirishi mumkin. Ba'zi o'smirlarni nima uchun atrofdagilar, kattalar, Shuningdek , ota-onasiga qarshi chiqayotganligini anglay olmayotganligi tashvishga soladi. Bu holat ularni ichdan asabiylashishlariga sabab bo'ladi va o'smirlik davri krizisi yuzaga keladi. Krizis boladagi mavjud tushkunlik, yolg'izlikka intilish, passivlik yoki aksi, o'jarlik, qaysarlik, agressivlik, hayotga salbiy munosabatlarning yuzaga kelishi sifatida namoyon bo'ladi. Bu krizis o'smirning ma'naviy o'sishi, Shuningdek, psixikasidagi o'zgarishlar bilan ham bog'liqdir. Bunday paytlarda u o'zi singari katta fiziologik, psixologik o'zgarishlar kechayotgan o'rtog'i bilan muloqot qilishga katta ehtiyoj sezadi. Do'sti o'smirga ijobiy ta'sir qiladimi yoki uni yo'ldan urib, yomon ta'sir kiladimi — bu narsa uning ahlokiy qiyofasi bilan bog'liq.

O'mirlarda diqqatning ko'lami juda tor bo'ladi ,chunki o'smir qisqa muddat ichida ko'p marta diqqati bo'linadi. Qisqa vaqt davomida u juda oz voqea hodisani idrok qiladi. Bu davrda o'smirlar atrofdagilar bilan muloqot chegarasi ham ortad . Ayniqsa o'zidan katta yoshdagilar bilan muloqot qilish ancha ortadi . Chunki ular o'zlarini kattalardek tuta boshlaydi. Ularda bu davrda biroz masulyat ortadi . Ammo ba'zi hollarda o'mirlar bu

masulyatni his qilmay, dangasalik, bekorchi narsalarga vaqt sariflash hollari kuzatiladi. Ammo bu davrni to'g'ri tashkil etish hammani o'z qo'lida. Bu davrdagi farzand tarbiyalayotgan ota –ona farzandi bilan ko'proq birga bo'lishi kerak. Chunki o'smir bola juda e'tibor talab bo'lib qoladi. O'smirlik davrida ichki erkinlikning o'sishida, o'z-o'zini anglash layoqatlarida, mustaqil xatti-harakatlarida katta sifat o'zgarishlari yuz beradi. Bunday o'zgarishlarning yuzaga kelishida irodaning ham ahamiyati katta. Iroda oliy psixik funktsiya sifatida o'smirning erkin harakat qilish quroli, Shuningdek, shaxsi rivojining magistral chizig'i bo'lib hisoblanadi. Bu davrga kelib uning harakatlari o'zi bilan o'rtoq bo'lgan bir guruh tengdoshlariga bog'liq bo'lmay qoladi. O'rtoqlari o'smirlarga o'zi to'g'risidagi noto'g'ri tasavvurlardan qaytib, jiddiy o'ylab ko'rishga uni majbur qilmoqchi bo'lganlarida ham u bemalol rad javobini berishi va o'z fikrida qat'iy turib himoya qilishi mumkin. Bu davrda o'zga kishilarning ichki dunyosiga ortiqcha qiziqish bilan qarash va o'z xatti-harakatlarini o'zi tahlil qilish, o'z-o'zini tarbiyalashning elementlarini yuzaga kelishi mana shu ikkinchi bosqichdagi o'smirlar hayotiga xos xususiyatlardir. O'smirlik davriga ko'pincha so'zga kirmaslik, o'jarlik, tajanglik, o'z kamchiliklarini tan olmaslik, urushqoqlik kabi salbiy xususiyatlar xosdir. O'smirlar hayotda, ekranda va kitoblarda kattalarning mustaqilligini va erkinligini, ularning katta va qiziqarli ishlarini, dadil harakatlarini, qahramonliklarini, atrofdagilar orasidagi obro'larini ko'radilar hamda havas qiladilar. Ota –ona farzandiga qancha ko'p vaqt ajratsa bolada ham ancha ijobiy o'zgarishlar kuzatiladi. O'smir bilan qancha ko'p muloqat qilinsa shuncha bolada oziga ishonch shuncha ortadi. Fikrini erkin bayon qilishga qo'rmaydi. Bolada boshqalarga nisbatan ishonch ortadi. O'smir bolaning rivojlanishiga atrof muhit ancha yuqori tasir kursatadi, bolalarni bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilish eng katta vazifa sanaladi. O'smir bola har xil keraksiz narsalarga chalg'imasligi uchun, uchun bolani bo'sh vaqtini biror bir qiziqqan sohasiga yo'naltirib uni bandligini taminlash kerak. O'smirlik Yoshining mohiyati shundan iboratki, o'smir birmuncha faolroq ijtimoiy muhitga etilgan bo'lib, bolalik chog'ida vujudga kelgan eski munosabatlarni buzib, ana shu muhit uchun kurasha boshlaydi». Har bir o'smir muvaffaqiyatli ishlar bilan tevarak-atrofdagi odamlar o'rtasida o'z shaxsini tasdiqlashga intiladi. Ayniqsa o'smir davrdagi bolani qiziqqan sohasiga yo'naltirish, uni kelajakda o'z kasbini yetuk mutahasisi bo'lishiga zamin yaratiladi. O'smirlik davridagi yoshlar bilan ishlash bir jihattan qiyin va ko'p ma'suliyat talab qiladigan faoliyat hisoblanadi. Kattalar o'smirlarning foydali jamoa ishlarida muvaffaqiyatga erishishlarida yordam berishlari va bu bilan ularning o'z qadr-qimmatlarini namoyon qilishlariga imkon berishlari lozim. Aks holda ular boshqalarning oldida o'zlarini yuqori qo'yishlari, bepisandlik qilishlari mumkin. Buni ular o'zlarining qadr-qimmatlari tan olinmaganligi yoki kamsitilganligiga qarshi chiqib, salbiy ishlar va xatti-harakatlar orqali amalga oshirishlari mumkin bo'ladi. Psixologlar bu davrda yoshlar bilan ishlashda biroz yumshoq tabiat bo'lishi erakligi, yoshlarni ko'proq tinglashga harakat qilishi kerakligi so'raladi. Biz yuqorida fikr yurutgan o'smirlik davrida diqqatning buzulishi mavzusidan xulosa shuki bu davr o'z hukumronligini o'tkazadi. Har bir yoshda bu davr kuzatilib yoshlarni bir muddat o'z masuliyatidan chalg'itadi. O'smir shaxsini

tarkib toptirishda uning atrof-muhitga, ijtimoiy hodisalarga, kishilarga munosabatini hisobga olish lozim. Psixologlar o'tkazgan tadqiqotlardan ko'rinadiki, o'smirlarning ko'pchiligi qat'iyatlilik, kamtarlik, mag'rurlik, samimiylik, dilkashlik kabi ma'naviy, ahloqiy tushunchalarni to'g'ri anglaydilar. Ularning turmush tajribasida fan asoslarini egallash natijasida barqaror e'tiqodiy va ilmiy dunyoqarash tarkib topadi, shular zaminida axloqiy ideallar yuzaga kela boshlaydi. Shuning uchun ota-onalarning bu davrda ma'suliyati yanada ortadi. Xulosa shundan iboratki har bir yosh ushbu davrda o'z fikriga ega va o'z ishiga ma'suliyatli yondoshsa bu kelajak uchun ko'yilgan eng katta qadam bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABYOTLAR :

- 1.P.I. Ivanovning "Umumiy psixologiya" kitobi.
2. E.G'.G'oziyevning "Umumiy Psixologiyaga kirish" kitobi.
- 3.M.E.Zufarova "Umumiy psixologiya'